

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



XOJA HIKOYATLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchi
ndilafroz476@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226125>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘z davrining yetuk ijodkori Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlari tahlil etiladi. Mazkur asarlarning mohiyati, ilmiy, adabiy va badiiy qiymatini to‘la yoritish uchun asl manba (qo‘lyozma)lar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” nomlari bilan saqlanadi. Sharq mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadigan hikoyat janrining XVI asrdagi taraqqiyotini belgilashda bu ikki asar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Xoja hikoyatlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Xoja, hikoyat, “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”, mumtoz adabiyot, oyat, hadis, an‘ana, tahlil.

XV asrning oxiri XVI asrda yashab ijod etgan Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xoja adabiyot tarixida hikoyatlar ustasi sifatida e‘tirof etilgan. Adib hikoyatlari mavzu mundariyasi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan puxta, pishiq yozilgan, axloqiy-ta‘limiy, ma‘rifiy ahamiyatga ega kichik asarlardir.

Mumtoz adabiyotda hikoyatlar ko‘pincha asar ichidagi kichik asar sifatida keladi. Masalan, “Xamsa” dostonlarida keltirilgan hikoyatlar asarlardagi asosiy syujet voqealarga ta‘sir qilmagan holda biror fikr-g‘oyaning targ‘ibi, hayotiy isboti uchun keltiriladi. Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlar esa asar ichidagi kichik asar emas, balki ijodkorning Qur‘on oyatlari va hadislarini keltirishi va sharhlashi natijasida kelib chiqadigan fikr-mulohazalarini, ya‘ni oyat va hadislarining mazmun-mohiyatiga monand hikoyatlar keltiradi. Masalan, ilm o‘rganish, adolatli bo‘lish, podshoh va xalq boshliqlarining qanday bo‘lishi kerakligi, zulmkor bo‘lmaslik, mute‘lik, maslahatlashib ish ko‘rish, adolatli hukm qilish va boshqa bir qator mavzudagi hikoyatlari ma‘lum hayotiy voqelikka asoslangan kichik nasriy asarlardir. E‘tibor qaratsa, Xoja ijodiy merosining asosi – o‘zagini ijtimoiy, siyosiy, diniy, ma‘naviy-axloqiy ruhdagi, didaktik mazmundagi hikoyatlar tashkil etadi. Bunday hikoyatlarda diniy-tasavvufiy, tarixiy, badiiy obrazlar bilan bir qatorda oddiy xalqning dono, topqir, iymon-e‘tiqodli, adolatparvar, hurlikka intilgan, irodali, vijdonli kishilari obrazi tasvirlanadi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Mumtoz badiiy adabiyot har doim ham dindand oziqlangan. Asosiy g‘oyalarni Qur’oni Karim va Hadislardan oladi. Komil insonni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilgan didaktik adabiyot axloqiy mezonlarni shu ikki manbaga tayanib belgilaydi. Bizgacha yetib kelgan didaktik asarlarda buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu an’anani davom ettirgan Xoja ijodida ham Qur’oni Karim oyatlari va Hadislar sharhini uchratamiz. Jumladan, “Miftoh ul-adl” asari Qur’oni Karim oyati bilan boshlanadi, keyin asar yozishdan maqsadi, asarni kimga bag‘ishlagani, yozayotgan asarining g‘oyasi, asarda yoritmoqchi bo‘lgan mavzulari bayon etiladi. Har bir mavzu – g‘oya haqida fikr-mulohaza yuritgach, Qur’on oyati keltiriladi. Keltirilgan oyat sharhlanganidan so‘ng, shu oyat mazmuniga yaqin hadis keltiriladi va ma‘nosi izohlanadi. Hamda oyat va hadislarida ifodalangan g‘oyaga monand hikoyatlar keltiradi. Asar syujeti shu tarzda davom etadi.

Masalan, “Miftoh ul-adl” asarining 4656-D qo‘lyozma nusxasi fors-tojik tilidagi she‘riy parcha bilan boshlangan:

دل بدست اور كه حجى اكبر است

[1: 87a.] از هزاران كعبه يكدل بهتر است

O‘qilishi:

Dil ba dast ovar, ki hajji akbar ast,
Az hazoron Ka’ba yak dil behtar ast.

Mazmuni:

Ko‘ngilni qo‘lga kirit(ovla)gilkim, buyuk Haj shudir,
Minglab Ka’badan bir dil yaxshiroq.

“Miftoh ul-adl” ning 4656-D inv. raqamli qo‘lyozmasi yuqoridagi she‘riy parchadan so‘ng, “Bismillahir rahmonir rohiym” bilan boshlanib, Allohga hamd keltiriladi. So‘ngra “Jam qildim bu kitobni turkiy tilina...”[1: 87a] qilganligini, kimga bag‘ishlagani va sultonlarga, beklarga, ulug‘larga xizmat qilmoq uch turli bo‘lib, ular: a) tan xizmati; b) til xizmati; d) ko‘ngil xizmatidir. Bu uch xizmatni sharhlab, keyin “Miftoh ul-adl” asari boblari xususida to‘xtaladi. Boblar quyidagicha nomlangan:

Avvalg‘i bob: Olimlarni bayon qilur;

Ikkinchi bob: Adl sultonlarni bayon qilur;

Uchinchi bob: Zolimlarni bayon qilur;

To‘rtinchi bob: Sultonlarga‘a mute‘ bo‘lmoqni bayon qilur;

Beshinchi bob: Sultonlarga‘a, vazirlarga‘a mashvaratning bayoni;

Oltinchi bob: Hukm qilmoqning bayoni;

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



- Yettinchi bob: Da'voning bayoni;
Sakkizinchi bob: Ont ichmakning bayoni;
To'qqizinchi bob: o'g'riliqning bayoni;
O'ninchi bob: Zino haddining bayoni;
O'n birinchi bob: (قزف) quzf haddining bayoni;
O'n ikkinchi bob: shurb haddining bayoni;
O'n uchinchi bob: ta'zir qilmoqning bayoni;
O'n to'rtinchi bob: g'azot qilmoq bayoni;
O'n beshinchi bob: sayd qilmoqning bayoni[1:87b].

Asar boblaridan ko'rinib turibdiki, u o'zida ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta'limiy masalalarni mujassamlashtirgan. Har bir bobda Qur'on oyatlari, suralar, hadislar arab tilida berilgan, so'ngra ma'nosi izohlanib, ularni tasdiqlaydigan biror voqeani hikoya qilib, nazir hikoyatlar keltiradi va muallifning xulosasi bilan yakunlanadi.

Imomi A'zam, Ali (r.a), Umar (r.a), Dovud alayhissalom, Iso alayhissalom, Muso alayhissalom, Luqmoni hakim, Sulton Mahmud G'aznaviy, Iskandar Zulqarnayn, No'shiravoni odil, Bahromgo'r, Shayton va boshqalar; "Gulzor" asarida esa yuqoridagi asarda tilga olingan an'anaviy obrazlardan tashqari Sultoni Sanjari Moziy, Sulaymon alayhissalom, Shayx Bahlul, Xorun ar-Rashid va hakozi obrazlarning hayoti va faoliyati bilan bog'liq bir necha hikoyatlar berilgan. Har ikkala asarda ham xalq orzusidagi odil, insofli, diyonatli, xalqni o'ylaydigan, ular dardi bilan yashaydigan SHOH obrazi yaratilgan hikoyatlar uchraydi. Bunga misol sifatida "Iskandar Zulqarnayn va Chin hoqoni" hikoyatini keltirishimiz mumkin. Mumtoz adabiyotda yaratilgan asarlarda Iskandar Zulqarnayn adolatli shoh sifatida e'tirof etiladi. Xoja hikoyatida Iskandar Zulqarnayndan ham odilroq Chin hoqoni obrazi tilga olinadi. Iskandar Zulqarnayndan qilich zarbi bilan qo'lga kiritmoqchi bo'lgan Chin davlatini Chin hoqoni qon to'kmaslik uchun qilichni, tig'ni emas, balki sulh tuzishni afzal biladi. Chin hoqoni har jihatdan Iskandar Zulqarnayn qo'shinidan ustun bo'lsa ham murosasiz yo'lini tutib, xalqi va askarlarini ziyon-zahmatdan qutqargan odil shoh sifatida ulug'lanadi.

Xoja Luqmoni hakim haqidagi hikoyatini "Miftoh ul-adl" asarining uchinchi "Zolimlarning bayonin qilur" bobida bayon etadi. Hikoyatda keltirilishicha, Luqmoni hakim bir qul edi. Xojasi bir kuni Luqmonga falon joyga bug'doy ekkil, yana falon joyga arpa ekkil deydi. Luqmoni hakim borib arpa ek degan joyga bug'doy, bug'doy ek degan joyga arpa ekadi. Ekin yetilgach, xojasi kelib qarasa, aytganidek ekilmagan edi. Xojasi Luqmoni hakimdan nega bunday qilganligini so'raydi. Luqmoni hakim

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



esa shunday javob beradi: “Ey xoja, nechukkim yozuq o‘rninda savob bitar, savob o‘rninda yozuq bitar. Tunu kun zulm qilursan, taqi qiyomatda savob umid etarsan”[1:147b-148a]. Xojasi bu so‘zlarni eshitib bir oh urdi va jami qilgan gunohlari uchun tavba qilib, istig‘for qildi hamda Luqmoni hakimni ozod qildi. Hukoyat “Nima eksang, shuni o‘rasan” bilan yakunlanadi.

Xoja Bahrom Go‘r haqidagi hikoyatini “Miftoh ul-adl” asarining oltinchi “Hukm qilmoqning bayonin qilur” bobida bayon etadi. Unda “Bahrom Go‘r otlig‘ bir podshoh bor edi. Doim ichgu bila mashg‘ul bo‘lib, ishrat qilur erdi. Uning bir vaziri bor erdi. Oti Rostravshan erdi. Harnakim qilsa, ul qilur erdi” bilan boshlanadi va xalqqa zulm qilgani, xazinaga mol kirmay qo‘ygani, shaharlar xarob bo‘lib, xalq ko‘chhib ketayotgani batafsil bayon etiladi. Hikoyat yakunida shunday xulosa beriladi: “ Emdi sulton yo bek bo‘lg‘on kishi vazirig‘a ishonib g‘ofil bo‘lmoq kerakmas. Va yana podshoh yo bek bo‘lg‘on kishi bir navkarin bir shaharga beklikka yuborsa, yashirin yana bir g‘arazsiz kishini ortindan yubormak kerak. Adl qilurmu yo zulm qilurmu...”[1: 188a-189b], – degan xulosa bilan yakunlaydi.

Adibning “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarida g‘oyaviy-badiiy jihatdan pishiq ko‘plab hikoyatlari mavjud. Ular orasida Olohning yerdagi elchilari – payg‘ambarlar obrazi orqali insonlarni iymonga, hidoyatga chorlagan bo‘lsa, tolibi ilmlar timsolida ilm olish har bir mo‘min-musulmon uchun farz ekanligini uqtirsa, adolatli sulton, bek, vazir obrazlari ishtirokidagi hikoyatlarida yurt boshqaruvchilarining odillik, to‘g‘rilik bilan ish ko‘rishi oddiy xalq osoyishtaligi, farovon yashashining garovi ekanligini ko‘rsatib, hokimiyat tepasida turganlar adolat bilan ish tutishi lozimligini uqtiradi. Adib hikoyatlarida adolat masalasi birinchi o‘rinda turadi. Muallif adolat tushunchasini turli jihatlardan yoritishga harakat qiladi. “Podshoh va zohid”, “Mahmud G‘aznaviy va boyqush”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy, vazir va Ayozi”, “Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid”, “Sulaymon, pashsha va yel” kabi hikoyatlarida bosh g‘oya sifatida adolat masalasi qo‘yilgan. “Podshoh va zohid” hikoyatida Zohid bir soatlik adolatga 20 martalik haj savobini almashtirishga tayyorligini aytadi. Podshohxoja hikoyatlari katta ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga molik asarlardir. Ularning zamiriga chuqur insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolatparvarlik g‘oyalari singdirilganligi bilan hozirgi kunda eskirgan, podshohlar, vazirlar, darveshlar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq syujetlar asosida yaratilganiga qaramay, o‘zining axloqiy-didaktik, ijtimoiy-zamonaviy qimmatini yo‘qotmagan. Ular bugun va kelajak uchun birday xizmat qiladi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Xulosa qilib aytganda, Xoja hikoyatlari turli mavzularda bayon etilgan. Payg‘ambarlar, podshohlar, vazirlar, beklar, amaldorlar, tarixiy shaxslar, shayxlar, oddiy insonlar haqidagi voqealar bayonida bir sulton, dono kishi, vazir yo bekning ibratli so‘zlari, amallari, bajargan ishlari oyat va hadislar asosida kitobxonga tushuntirilgan. Shu bois, adib asarlaridagi hikoyatlar mazmun jihatidan, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bir-birini takrorlamaydi. Hikoyatlarida ilm targ‘ibi, bilim olish, adolatli bo‘lish, insoniylik, halollik, saxovatli bo‘lish, ogoh bo‘lish, pok bo‘lish kabi go‘zal insoniy fazilatlar madh etiladi. Ont ichmoq, o‘g‘irlik, zino qilmoq, shurb – ichmoq, ta‘zir – koyish, jazolash haqida ham oyat va hadislar asosida fikr-mulohazalarini bildirgan. Xoja asarlaridagi hikoyatlarning syujeti, kompozitsion qurilishi ixcham va sodda. Hikoyatlar adib g‘oyalarini, fikr-mulohazalarini isboti sifatida biror shaxs (podshoh, vazir, bek, amaldor, shayx, oddiy inson)ning ibratli ishlarini ko‘rsatish, farzandlarga o‘git va nasihat qilish, iymon-e‘tiqodni mustahkamlash maqsadida keltirilgan. Bu hikoyatlar har jihatdan kitobxonni ezgulikka, adolatparvar bo‘lishga, ilm olishga chorlaydi. Kitob ixlosmandlariga ma‘naviy ozuqa berish bilan bir qatorda har ikki asarning adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan. Xoja asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kun uchun ham ibratli, inson ma‘naviy kamoloti uchun dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Podshohxoja. “Miftoh ul-adl” ning qo‘lyozma nusxasi. Inv № 4656-D. 210 varaq.
2. Mirzaahmedova M. Xoja. – T.: Fan, 1975. – B.130.
3. Poshshoxo‘ja. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. – T.: O‘zdavnashr, 1962. – B. 56.
4. Nazarova D. Mumtoz adabiyotda hikoyat janri xususiyatlari. O‘zMU xabarları, 2023. 1/11/1. – B. 392-394.